O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Naim Karimov “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi” mukofoti bilan taqdirlandi

Bugun O‘zbekiston Fanlar akademiyasida o‘zbek adabiyoti rivojida o‘zining munosib o‘rniga ega olim, adabiyotshunos Naim Karimovning 90 yilligiga bag‘ishlangan tanatanali tadbir va “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda Naim Karimov “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi” mukofoti bilan taqdirlandi.

Anjumanda o‘zbek adabiyoti vakillari, olimlar ishtirok etishdi. Jumladan, Ulug‘bek Hamdamov filologiya fanlari doktori, professor, Ibrohim G‘afurov O‘zbekiston Qahramoni, Sirojiddin Sayyid O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi raisi, Nizomiddin Mahmudov O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, Minhojiddin Mirzo Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, Baxtiyor Hasanov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori, Shuhrat Rizayev O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor so‘zga chiqib, atoqli olimimizning hayoti, ilmiy faoliyatiga oid fikrlarini bildirishdi, dil so‘zlarini izhor etishdi. Olimning bosib o‘tgan hayot yo‘li, ilmdagi sabru-matonati yoshlar ko‘z o‘ngida yana bir bor gavdalanib, tarbiya, ma’naviy saboq sifatida namoyon bo‘ldi.

MAJID FOTNOVICH
XARMOV
90